XALQ DEPUTATLARI PARKENT TUMAN KENGASHINING
Q A R O R I

2022 - yil 12 - fevral VI-43-19-10-141-K/22 Parkent tuman hokimligi

2022-yil uchun Parkent tumani mahalliy budjeti to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 30-dekabrdagi “2022-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-742-son Qonuniga (keyingi o‘rinlarda Qonun deb ataladi) muvofiq, Parkent tuman mahalliy budjetini qabul qilish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risidagi” Qonunining 24-moddasiga asosan Xalq deputatlari Parkent tuman Kengashi,

QAROR QILADI:

1. Toshkent viloyati Parkent tumani (keyingi o‘rinlarda - tuman deb ataladi) budjetiga Toshkent viloyati budjetidan ajratilgan:

tartibga soluvchi budjetlararo transfert 87 618 351,0 ming so‘m miqdorida tasdiqlanganligi;

tuman budjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar 1 223 100,0 ming so‘m miqdorda tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Qonunga asosan 2022-yilda:

a) Quyidagi soliq turlari tuman budjetiga to‘liq hajmda o‘tkazib beriladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarga tegishli mol-mulkni ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘laydigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan soliq mustasno;

qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (yirik soliq

to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq bundan mustasno);

davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyatning viloyat budjeti hamda tuman budjetlari o‘rtasida quyidagicha taqsimlanadi:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq 80 foizi;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i 80 foizi;

aylanmadan olinadigan soliq 50 foizi;

benzinni, dizel yoqilg‘isini va gazni yakuniy iste’molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i 80 foizi tuman mahalliy budjeti ixtiyorida qoldiriladi.

Shu bilan birga, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkini ijaraga berishdan oladigan yillik daromadi to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan to‘lanadigan, shuningdek, yakka tartibdagi tadbirkorlar to‘laydigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan tashqari) 30 foizi tuman mahalliy budjeti ixtiyorida qoldiriladi;

foyda solig‘idan tushumlarning (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan tasdiqlanadigan ro‘yxatga muvofiq yirik soliq to‘lovchilar, O‘zbekiston Respublikasida doimiy faoliyat olib boruvchi muassasa orqali faoliyat yurituvchi O‘zbekiston Respublikasi norezidentlari tomonidan, shuningdek, norezidentlarning to‘lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridan to‘lanadigan foyda solig‘idan tashqari) viloyat mahalliy budjetiga Qonunga muvofiq ajratma qilinadigan
40 foizi miqdordagi tushumlar viloyatning viloyat budjetiga 12 foizi hamda tuman mahalliy budjetiga 30 foizi taqsimlanishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

v) Viloyat budjetiga quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar to‘lig‘icha o‘tkaziladi:

elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

qonunchilikda belgilangan miqdorlardagi davlat bojlari (patent bojlaridan va litsenziyalar berganlik uchun davlat bojlaridan tashqari);

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjetiga undiriladigan jarimalar;

ayrim turdagi tovarlarning chakana savdosiga doir huquq uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjetiga undiriladigan boshqa yig‘imlar (bojxona organlari tomonidan undiriladigan yig‘imlar va

g‘ildirakli transport vositalari, o‘ziyurar mashinalar va ularning tirkamalari uchun undiriladigan utilizatsiya yig‘imidan, shuningdek, avtotransport vositalari oynalarining tusini o‘zgartirishga (qoraytirishga) ruxsatnoma berish uchun to‘lovdan tashqari);

avtotransport vositalarini sotib olganlik yoki O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun yig‘imlar;

qonunchilikda belgilangan miqdorlarda davlat daromadiga o‘tkaziladigan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va ajratmalar;

yer uchastkalariga bo‘lgan mulk va ijara huquqini auksion orqali sotishdan kelib tushgan pul mablag‘lari;

davlat aktivlarini joylashtirish va sotish (xususiylashtirish)dan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

g) Tamaki mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i va alkogol maxsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘idan tushumlar 2021-yil 1-iyul holatiga ko‘ra tuman va shahar aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq tuman mahalliy budjetiga o‘tkazib beriladi.

Agar qonunchilikda mahalliy budjetlarga o‘tkaziladigan daromadlarning taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo‘lsa, daromadning ushbu turi viloyatning viloyat budjetiga o‘tkaziladi.

3. Tuman hokimligining tashabbusiga ko‘ra amalga oshiriladigan ko‘shimcha tadbirlarni moliyalashtirish faqat tuman mahalliy budjetining ko‘shimcha manbalari hisobidan amalga oshirilishi qat’iy belgilab qo‘yilsin.

4. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b. (A.Xomidov), Moliya bo‘limi (Y.Abduxamidov), Davlat soliq inspeksiyasi (R.Ro‘ziboyev) va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli budjetni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy budjet prognoz ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarish;

budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

budjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy budjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

budjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

6. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (R.Ro‘ziboyev) O‘zbekiston Respublikasi Soliq

kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida budjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

7. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (R.Ro‘ziboyev), Kadastr agentligi bo‘limi (F.Jo‘raboyev) 2022-yildan boshlab yuridik shaslar mol-mulk solig‘ini hisoblashda ko‘chmas mulklarga 1 kv.metr uchun minimal miqdorlar joriy etilganligidan kelib chiqib, tumanda mavjud soliq to‘lovchilarning mol-mulklari maydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlasin.

8. Tuman davlat soliq inspeksiyasi (R.Ro‘ziboyev):

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallar hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

9. Majburiy ijro byurosi (Sh.Ro‘zibayev) tuman davlat soliq inspeksiyasi (R.Ro‘ziboyev) bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini budjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

10. 2022-yil uchun tuman budjeti daromadlar prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

11. Tuman budjetidan 2022-yilgi budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar miqdorini tuman budjeti daromadlari prognozi ijrosidan qat’iy nazar kamaytirishga yo‘l qo‘yilmasligi belgilansin.

12. Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yerlar bo‘yicha, yer solig‘i stavkasiga 0,7 dan 3,0 gacha kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llagan holda yer solig‘i stavkalari 3-ilovaga muvofiq, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo’yicha belgilangan minimal miqdorga kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsietlar 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

13. 2022-yil uchun Tuman budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 1 558 666,0 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Tuman budjetining 2022-yil uchun zaxira jamg‘armasi tuman budjeti tasdiklangan umumiy xarajatining kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantiriladi.

Tuman budjetini ijro etishda yuqori turuvchi budjetdan ajratiladigan budjetlararo transfertlar miqdori oshgan hollarda tuman budjet zaxira jamg‘armasining belgilangan miqdori qayta ko‘rib chiqilmaydi.

Tuman mahalliy budjetining zaxira jamg‘armasidan mablag‘lar ajratilgan taqdirda ushbu qarorga o‘zgartishlar kiritilmaydi.

Tuman hokimligi zaxira jamg‘armasi mablag‘larini tuman budjetida ko‘zda tutilmagan, kechiktirib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

14. Kengashning mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida budjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy budjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

Mahalliy budjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etadi va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

15. Tuman budjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larining kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni

moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas’ul etib belgilansin;

mahalliy budjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yhati, shuningdek qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimlik rasmiy veb-saytlariga joylashtirib borilsin.

16. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari v.v.b. (A.Xomidov), xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati va boshqa mas’ul shaxslar:

mahalliy budjet daromad va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

17. Mazkur qaror “Parkent tongi” gazetasida rasmiy e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

18. Tuman hokimligi Axborot xizmati Qonunda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari, budjet shaffofligi hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy axborot vositalarida yoritilishini ta’minlasin.

19. Ushbu qaror rasmiy e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

20. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari Parkent tuman kengashi raisi **Sh.Shoaxmedov**

Халқ депутатлари Паркент туман
Кенгашининг
2022 йил 12 февралдаги
VI-43-19-10-141-K/22-сон қарорига
1-илова

Parkent tuman budjeti daromadlarining 2022-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

T/r	Daromad turlari	Jami (ming so‘mda)
1.	Yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig‘i	816 956,0
2.	Korxonalar aylanmasidan soliq	7 972 489,0
3.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	14 215 126,0
4.	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	*1 130 823,0*
5.	*Yakuniy iste’molchilarga benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni realizatsiya qilishdagi aksiz solig‘i*	*5 073 926,0*
6.	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	3 048 295,0
7.	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	*4 224 549,0*
8.	Yuridik shaxslar yer solig‘i	5 945 316,0
9.	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	*7 697 943,0*
10.	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	*1 176 999,0*
11.	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	*429 853,0*
12.	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	*284 582,0*
JAMI		**52 016 857,0**
	Mobil aloqa xizmati va alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo uchun aksiz solig‘i tushumlaridan tegishli ravishda o‘tkazib beriladigan daromad	**25 583 357,0**
13.	*Alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo*	9 682 809,0
14.	*Mobil aloqa xizmati*	5 516 463,0
15.	*Tamaki mahsulotlari aksiz solig‘i*	*10 384 085,0*
JAMI DAROMAD		**77 600 214,0**

Халқ депутатлари Паркент туман
Кенгашининг
2022 йил 12 февралдаги
VI-43-19-10-141-K/22-сон қарорига
2-илова

Parkent tumani budjetidan 2022-yilgi budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

№	Ko‘rsatkichlar	Summa (ming so‘mda)
Xarajatlar miqdori, jami		**165 218 565,0**
1.	**Maktabgacha ta’lim bo‘limi**	**6 878 960,0**
2.	**Xalq ta’limi bo‘limi**	**13 070 884,0**
3.	**Tibbiyot birlashmasi**	**71 820 136,0**
4.	**Madaniyat bo‘limi**	**2 236 483,0**
5.	**Jismoniy tarbiya va sport bo‘limi**	**3 094 444,0**
6.	**Bolali oilalarga va kam ta’minlangan oilalarga nafaqalar va kompensatsiyalar**	**33 647 213,0**
7.	**Ijtimoiy ko‘nikma markazi**	**174 932,0**
8.	**Obodonlashtirish boshqarmasi**	**6 122 177,0**
9.	**Irrigatsiya bo‘limi**	**1 273 578,0**
10.	**Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi**	**973 808,0**
11.	**Mahalliy budjetlarda hokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**1 040 066,0**
12.	**Davlat boshqaruv idoralari**	**9 772 031,0**
13.	**Fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlarini saqlash**	**5 761 858,0**
14.	**Zahira jamg‘armasi**	**1 558 666,0**
15.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**7 793 329,0**

Халқ депутатлари Паркент туман
Кенгашининг
2022 йил 12 февралдаги
VI-43-19-10-141-K/22-сон қарорига
3-илова

Qishloq hoʻjaligiga moʻljallanmagan yerlar boʻyicha yer soligʻi stavkalari uchun 2022-yilda belgilangan koeffitsientlar

T/P	MFY nomi	Yuridik shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 Ga uchun		Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i stavkalari, 1 kv,m uchun	
		Koeffitsient (0,5 dan 2,0 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2022-yil uchun (ming so‘mda)	Koeffitsient (0,5 dan 2,0 gacha)	Er solig‘i stavkasi 2022-yil uchun (so‘mda)
Parkent tumani, shu jumladan:		1,0	23 625,6	1,0	216,0
1.	Navro‘z MFY	1,20	28 350,7	1,10	237,6
2.	Istiqbol MFY	1,20	28 350,7	1,10	237,6
3.	Yoshlik MFY	1,20	28 350,7	1,0	216,0
4.	Buloqboshi MFY	1,20	28 350,7	1,20	259,2
5.	Markaziy MFY	1,20	28 350,7	1,0	216,0
6.	Guliston MFY	1,20	28 350,7	1,0	216,0
7.	Istiqlol MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
8.	Qo‘rg‘on MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
9.	Yangiobod MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
10.	Davlatobod MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
11.	Shampan MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
12.	Boyqozon MFY	1,0	23 625,6	1,10	237,6
13.	Qo‘rg‘ontepa ShFY	1,20	28 350,7	1,0	216,0
14.	O‘choq MFY	1,20	28 350,7	1,10	237,6
15.	Yashnobod MFY	1,0	23 625,6	1,0	216,0
16.	Qayilma MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
17.	Bog‘bon MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
18.	Gulbog‘ MFY	1,20	28 350,7	1,10	237,6
19.	Objuvoz MFY	1,25	29 532,0	1,20	259,2
20.	Mozorxoji MFY	1,20	28 350,7	1,10	237,6
21.	Surxi MFY	1,20	28 350,7	1,10	237,6
22.	Xo‘ja MFY	1,20	28 350,7	1,10	237,6
23.	Tojiboy Rizayev MFY	0,90	21 263,0	1,10	237,6
24.	Qo‘lichi MFY	1,0	23 625,6	1,10	237,6
25.	Kumushkon MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
26.	Quruqsoy MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
27.	Cho‘qqayma MFY	1,0	23 625,6	1,0	216,0
28.	Bodomtepa MFY	1,0	23 625,6	1,0	216,0
29.	Oybek MFY	1,25	29 532.0	1,20	259,2
30.	Quyosh ShFY	0,90	21 263.0	1,0	216,0
31.	Bo‘rsiliq MFY	1,20	28 350.7	1,10	237,6
32.	Qo‘shshukur MFY	1,0	23 625.6	1,0	216,0
33.	Samarobod MFY	1,20	28 350.7	1,10	237,6
34.	Hurriyat MFY	0,90	21 263.0	1,0	216,0
35.	Ulug‘bek MFY	0,90	21 263.0	1,0	216,0
36.	Chashma MFY	1,20	28 350,7	1,0	216,0

37.	Chinor MFY	1,20	28 350,7	1,0	216,0
38.	Yangi Sanganak MFY	0,90	21 263,0	0,90	194,4
39.	Nevich MFY	0,90	21 263,0	0,90	194,4
40.	Novdak MFY	0,90	21 263,0	0,90	194,4
41.	Qizilsoy MFY	0,90	21 263,0	0,90	194,4
42.	Obod MFY	0,90	21 263,0	0,90	194,4
43.	Bozorboshi MFY	0,90	21 263,0	0,90	194,4
44.	Chinorli MFY	0,90	21 263,0	0,90	194,4
45.	Soy MFY	1,20	28 350,7	1,10	237,6
46.	Kichikqo‘rg‘on MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
47.	Chinorbuloq MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
48.	Teman MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
49.	Kungay MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
50.	Olmazor MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
51.	Nurobod MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
52.	Bo‘ston MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
53.	Qirg‘izovul MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
54.	Chotqol MFY	0,90	21 263,0	1,0	216,0
55.	Beshkappa MFY	1,0	23 625,6	1,0	216,0
56.	Oqtepa MFY	0,90	21 263,0	0,90	194,4
57.	Samsarak MFY	0,90	21 263,0	0,90	194,4
58.	Yangi Navbahor MFY	0,90	21 263,0	0,90	194,4
59.	Tolbuloq MFY	0,80	18 900,5	0,75	162,0
60.	Oydin MFY	0,80	18 900,5	0,75	162,0
61.	Said ota MFY	0,80	18 900,5	0,75	162,0
62.	Fayzobod MFY	0,80	18 900,5	0,75	162,0

Халқ депутатлари Паркент туман Кенгашининг
2022 йил 12 февралдаги
VI-43-19-10-141-K/22-сон қарорига
4-илова

2022-yilda yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo‘yicha belgilangan minimal miqdorga kiritilayotgan kamaytiruvchi koeffitsientlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsient (0 dan 0,5 gacha)	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkasi 2022 yil uchun (so‘m)
1	Parkent tuman	0,8	800 000,0